

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO'QON DAVLAT UNIVERSITETI



“Tasdiqlayman”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh.Xodjayeva
30-iyun 2025-yil

DINSHUNOSLIK

Bilim sohasi: 100000 – Ta’lim

Ta’lim sohasi: 110000 – Ta’lim

Ta’lim yo‘nalishi: Barcha ta’lim yo‘nalishlari uchun

Fan/modul kodi Din204		O'quv yili 2025-2026	Semestr III	Kreditlar 4
Fan/ modul turi Tanlov		Ta'lim turi O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soati)	Mustaqil ta'lim (soati)	Jami yuklama (soati)
	Dinshunoslik	60	60	120

Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi; Falsafa va din fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan Manchester universiteti (Buyuk Britaniya)ning Falsafa va din fanining o'quv dasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet QS World University Rankings 2024 bo'yicha 32-o'rinni egallagan bo'lib, Falsafa va din sohasi bo'yicha yuqori malakali ilmiy-uslubiy bazaga ega. Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan:

Nazariy va amaliy yondashuv uyg'unligi – Manchester universitetining Histories of the Islamic World

kursida yuridik nazariya bilan bir qatorda, zamonaviy falsafa va din munosabatlarini tartibga solish amaliyoti ham keng yoritiladi.

Xalqaro standartlarga muvofiqlik – dastur xalqaro huquqiy me'yorlar, ayniqsa, Britaniya ta'lim tizimidagi falsafa prinsiplari asosida boyitilgan.

Tanqidiy fikrlash va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish – talabalar huquqiy holatlarni mustaqil tahlil qilish, dalillarga tayangan holda huquqiy xulosa chiqarishni o'rganadilar.

I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad – “Dinshunoslik ” fani talabalarda dunyo dinlarining tamadduni, rivojlanishi, tarixi, falsafasi, halqlar ijtimoiy va ma'naviy hayotida tutgan orni boyicha ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, shuningdek, din niqobi ostida turli buzqunchi qoyalarning mohiyatini anglab etish, mafkuraviy immunitetni mustaqkamlashga hizmat qiladi. Dunyo dinlar fanining o'qitilishning o'ziga xosligi, o'quvchilarda talim tarbiyaning uyg'unligi e'tibor qaratish asosiy talablardan hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchilarga Vatanparvarlik, milliy iftihor tuyg'ulari milliy qadriyatlarning ifodalaydigan tushunchalar bo'lib, o'quvchilarni ma'naviy – axloqiy tarbiyalash mezonlarni o'z ichiga oladi.

Fanni o'qitishdan maqsad – “Dinshunoslik” fani talabalarda dunyo dinlarining tamadduni, rivojlanishi, tarixi, falsafasi, halqlar ijtimoiy va ma'naviy hayotida tutgan o'rni boyicha ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, shuningdek, din niqobi ostida turli buzqunchi qoyalarning mohiyatini anglab etish, mafkuraviy immunitetni mustaqkamlashga hizmat qiladi. Dunyo dinlar fanining o'qitilishning o'ziga xosligi, o'quvchilarda talim tarbiyaning uyg'unligi e'tibor qaratish asosiy talablardan hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchilarga Vatanparvarlik, milliy iftihor tuyg'ulari milliy

qadriyatlarning ifodalaydigan tushunchalar bo'lib, o'quvchilarni ma'naviy – axloqiy tarbiyalash mezonlarni o'z ichiga oladi.

Fanning asosiy vazifalari - dunyo dinlarining paydo bo'lishiga sabab bo'luvchi omillar; - dunyo dinlarining ijtimoiy funksiyalari; - dunyo dinlarini tarixiy davridagi ijtimoiy va siyosiy sharoitlari ; - dinning insoniyat tarixiy taraqqiyotida tutgan orni uning insoniyatga o'tkazgan ijtimoiy-psihologik ta'siri; - jahon dinlarining tarixi va manbalarini o'rganish - dinning asl insonparvarlik mohiyatini asrash, uning ma'naviy ma'rifiy salohiyatini jamiyatdagi barqarorlik, ijtimoiy hamkorlik, konfessiyalararo hamjihatlikni mustahkamlashga yo'naltirish borasidagi ishlarda tadrijiylikni ta'minlash; - davlatimizning vijdon erkinligi sohasida olib borayotgan siyosatini, hamda uning amaliy natijasi bo'lmish qaror topgan diniy bag'rikenglik muhitini yoshlar orasida keng yoritishga qaratilgan tadbirlarning samaradorligini oshirish.

I -MODUL. DINLAR

1-mavzu. Falsafa va dinlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tanqidiy tushunish

O'qituvchilarning ilmiy-tadqiqot va ilmiy faoliyati asosida shakllangan multidisiplinar o'quv dasturlarini taqdim etish; Turli o'quv va o'qitish usullari orqali falsafa va dinlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tanqidiy tushunishingizni rivojlantirish; Asosiy va ikkilamchi manbalarni talqin qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan ta'minlash; Imkon qadar mos ravishda til bo'yicha zarur ta'lim berish; Turli ijtimoiy qatlamlardan chiqqan talabalarni samarali akademik va tarbiyaviy qo'llab-quvvatlash orqali ularning o'qish jarayonida rivojlanishiga yordam berish; Fan bo'yicha maxsus bilimlar, o'z-o'zini o'rgatishga faol jalb bo'lish hamda tahliliy va boshqa ko'chiriladigan ko'nikmalarni rivojlantirish orqali sizni turli sohalarda ishlash uchun tayyorlash

2-mavzu. Milliy dinlar

Yahudiylilik dinining yuzaga kelishi. Tavrot yahudiylilik dinining muqaddas kitobi. Yahudiylilik ta'limoti, an'ana va marosimlari. Markaziy Osiyoda yahudiylilik. Hinduizm dinining mazmun mohiyati. Vedalar. Braxmanlik. Hinduylilik ta'limoti va xudolar panteoni. Jayniylilik. Sikxiylilik ta'limoti va manbalari. Konfutsiylilik ta'limoti va uning Xitoy milliy diniga aylanish jarayonlari. Konfutsiylilik ta'limotida ijtimoiy-axloqiy masalalar. Daochilik – falsafiy ta'limot. “Dao” tushunchasi tahlili. Sintoiylik. Yapon xalqi an'analari. Kami kulti. 3-mavzu. Qadimgi milliy dinlar va uning jamiyat ijtimoiy hayotidagi roli.

Qadimgi milliy dinlar falsafasi. Qadimgi Misr, Yunoniston, Xitoydagi dinlarning falsafiy g'oyalari. Hozirgi milliy dinlar: (hinduizm, daosizm, konfusiychilik, sintoizm)da diniy-falsafiy ta'limotining shakllanishi. Milliy dinlarning o'ziga xosligi. Milliy din ko'rinishlari va ularning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyati.

3-mavzu: Zardushtiylik dini

Zardushtiylik dinining vujudga kelishi. Zardushtiylik shakllangan tarixiy sharoit. Zardushtiylik ta'limoti. Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal tamoyili. Govmard va shoh Yima. Zardushtiylikning teologik tizimi va diniy marosimlari. Zardushtiylikda tabiatning ulug'lanishi. Zardushtiylikning diniy iyerarxiyasi. "Avesto" matnlari. Avestoning tarkibiy tuzilishi. 5-mavzu Zardushtiylik ta'limotidagi Avesto kitobining diniy-axloqiy g'oyalarning falsafiy tahlili.

II -MODUL. JAHON DINLARI

4-mavzu. Buddaviylik dini

Buddaviylik dinining paydo bo'lish tarixi, asosiy ta'limotlari, oqimlari va manbalari. Kushonlar imperiyasida buddaviylik dinining davlat dini darajasiga ko'tarilishi. An'anaviy buddaviylik. Tripitakan va buddaylikning muqaddas manbalari. O'rta asrlarda Dzen buddaviylik ta'limoti. Chan buddizmning Xitoyda rivojlanishi. Modern buddaviylik. Global buddaviylik. Hozirgi davrda buddaviylikning rivojlanishi. Tibetning buddaviylik maktabi va rohib Dalay Lamaning faoliyati. O'zbekistonda buddaviylik dinining tarixiy ildizlari (Qaratepa, Fayoztepa, Dalvarzintepa) va hozirgi zamon.

5-mavzu. Xristianlik dini

Xristianlikning paydo bo'lishi, aqidalari, asosiy yo'nalishlari, ta'limotlari va manbalari. Katolitsizm va pravoslavlik dini yo'nalishlarining o'zaro farqli tomonlari. Protestantlik harakatining shakllanishi va rivojlanishi. Rim-katolik cherkovi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari. Sharqiy Yevropa pravoslavlik avtokefal cherkovlari. XV asrda Yevropada reformatorlik g'oyalari (Anglikan, lyuteran, kalvinizm cherkovlari va h.k.) Hozirgi davrda xristian dinining rivojlanishi va dunyo davlatlaridagi o'rni. O'zbekistonda xristian dinining rivojlanishi tarixi va hozirgi zamon.

6- Mavzu. Islom tarixi va uning Yaqin Sharq va undan tashqaridagi ta'sirini o'rganishni.

Talabalarga islom dunyosi va islom jamiyatlaridagi siyosat, jamiyat va madaniyat sohalaridagi asosiy rivojlanishlarni tanishtirish. Islom va uning sivilizatsiyalari haqida mavjud bo'lgan ijobiy va salbiy noto'g'ri tasavvurlarni tahlil qilish hamda bu xatoliklarning vaqt o'tishi bilan islom qanday talqin qilinganiga bog'liqligini aniqlash. Talabalarni g'arbiy bo'lmagan va jahon tarixidagi asosiy mavzular bilan tanishtirish hamda dunyoning turli mintaqalari o'rtasida taqqoslashni rivojlantirish. Matn va manbalarni o'qish va tahlil qilish, konspekt tuzish, dalillash va ilmiy yozish ko'nikmalarini takomillashtirish. O'tmish voqealar haqida tanqidiy va insonparvarlik nuqtayi nazaridan o'ylash qobiliyatini rivojlantirish hamda ushbu qobiliyatni zamonaviy muammolarga qo'llashni shakllantirish

7-mavzu. Islom dinining aqidaviy yo'nalishlari va maktablari

Kalom ilmining shakllanishi. Ilk aqidaviy adabiyotlarning islom dinining qabul qilinishidagi o`rni. Alloh sifatleri haqidagi g`oyalar. Esxatologiyaning mohiyati: qiyomat va oxirat dunyosi. Islomda iymon, taqdir, rizq tushunchalarining talqini. Noan'anaviy e'tiqodlar: xoriyya, mu'taziliya, qarmatiya harakatlari. Islom oqimlari va yo'nalishlarining paydo bo'lishi sabablari, e'tiqodidagi bo'linishlarning sabablari va oqibatlari. Sunniylik va shialik yo'nalishlarining paydo bo'lishi va ular e'tiqodidagi farqlar. Moturidiylik va ash'ariylik maktablari.

8 – mavzu Markaziy Osiyo tarixida Xanafiya mazhabining o`rni

Hanafiyluk mazhabining asoschisi Abu Hanifa hayoti va ta'limoti. Xanafiya mo'tadil islom tamoyili va bag'rikenglik g`oyalari. Hanafiyning islom fiqhi tarixidagi o`rni. Movarounnahrda hanafiy mazhabi va Markaziy Osiyo faqihlari. Movarounnahrda fiqh ilmining mashhur namoyandalari. Hanafiy mazhabi rivojida Markaziy Osiyo faqihlarining roli va hissi. Islom huquqi (fihi) va uning taraqqiyot bosqichlari. Islom huquqi asosiy atamallari. Islom huquqi manbalari. Qur'on, sunna, ijmo va qiyos, masolihul-mursala, istihson va urf. Xanafiya mazhabining islom tasavvufi bilan bog'liqlik asoslari. Tasavvuf tushunchasi va uning mohiyati. Tasavvufning kelib chiqishi, mazmuni va rivoji. Yusuf Hamadoniy. Abduxoliq G'ijduvoniy. Yassaviya, Kubroviya, Naqshbandiya tariqatlarining shakllanishi. Tariqatchilikning zamonaviy ko'rinishlari.

9 - mavzu. O'zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy tashkilotlar

Konfessiya tushunchasining mohiyati va O'zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy konfessiyalarning tasnifi. Dinning jamiyat integratsiyasi va barqarorligiga ta'siri. O'zbekistonda konfessional jarayonlarning asosiy yo'nalishlari. Diniy tashkilotlarning zamonaviy dunyoviy me'yorlarga moslashuvining ahamiyati. Dunyo mamlakatlari va O'zbekiston konstitutsiyasida vijdon erkinligi huquqining ifodasi. O'zbekistonda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar haqidagi qonun qabul qilinishining tarixi va uning ahamiyati. Vijdon va e'tiqod erkinligining ta'rifi. Davlat va din munosabatlarini tartibga solishning tiplari. (Identifikatsion model, separatsion model va kooperatsion modellar). Sekulyarlashuv jarayoni. O'zbekistonning davlat sifatida shakllanishida din omili. Sobiq Sovet Ittifoqi davrida O'zbekistonda diniy qarashlarga munosabatning asosiy jihatlari. BMTning 72 sessiyasida diniy bag'rikenglik haqidagi rezolyusiyani qabul qilish haqidagi taklifning ijtimoiy siyosiy ahamiyati

10-mavzu. Zamonaviy diniy harakatlar va sektalar Islom va boshqa diniy aqidalar sinkretlashuvi natijasida shakllangan diniy ta'limotlar tarixi. Bahoiylik va qodiyoniylik harakatlari. Xalqaro Krishnani anglash jamoasi faoliyati. Baxshillochilar jamoasi. Soxta xristianlik harakatlari. O'zbekistonda faoliyati kuzatilgan norasmiy diniy jamoalar. Xalqaro diniy tashkilotlar faoliyatining yo'nalishlari. Islom hamkorlik tashkiloti, Islom konferensiyasi tashkiloti, fan, ta'lim va madaniyat bo'yicha islom tashkiloti. Arab davlatlari ligasining maqsadi va faoliyatining yo'nalishlari. Islomiy banklar faoliyatining yo'nalishlari.

III -MODUL. DIN VA JAMIYAT

11-mavzu. Kiber makonda diniy e'tiqod targ'ibotining ijtimoiy xavfi

Kiber makon, kiber terrorizm, kiber zo'ravonlik (cyberbullying) tushunchalarining mohiyati. Internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda diniy targ'ibot usullari. O'zbek tilida faoliyat yurituvchi ekstremistik jamoa va shaxslarning ijtimoiy hayotga salbiy ta'siri. Ijtimoiy tarmoqlarda diniy axborot ist'emoli madaniyatini tarbiyalashning zarurati. Hozirgi davrda virtual diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda xalqaro kuchlarni birlashtirishning ahamiyati.

12-Mavzu. Missionerlik va prozelitizmning siyosiy-ijtimoiy xavfi

Missionerlik va prozelitizm tushunchasining mohiyati va rivojlanish bosqichlari. Xristian dini missionerligi va islom dini missionerligi. Xalqaro missionerlik tashkilotlari va ularning targ'ibot usullari. Missionerlik targ'ibotida uslub va vositalarning zamonaviylashuvi: kiber makonda mafkuraviy tahdidlar. Missionerlik va prozelitizmning targ'iboti va ularni bartaraf etish bo'yicha olib borilayotgan faoliyat dinamikasi. O'zbekistonda faoliyati kuzatilgan missionerlik harakatlari va ular faoliyatining oqibatlari. Missionerlik va prozelitizmning ma'naviy barqarorlikka tahdidi hamda uni oldini olishning mexanizmlari.

13-mavzu. Diniy fundamentalizm, radikalizm va terrorizmning tarixi va yo'nalishlari

Diniy fundamentalizmning tarixi va rivojlanish bosqichlari. Radikalizmning paydo bo'lishi sabablari va oqibatlari. Diniy radikalizmning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. Diniy aqidaparastlik (fanatizm), ekstremizm paydo bo'lishining ijtimoiy-tarixiy zaminlari va rivojlanishi. Markaziy Osiyo mintaqasida faoliyati kuzatilgan diniy ekstremistik harakatlarning maqsadlari. Sog'lom va ma'rifiy mazmunga ega bo'lgan sof islomiy tushunchalarning g'arazli maqsadlarda talqin etilishining oqibatlari. Terrorizmning mohiyati va uning shakllari. Diniy shiorlar ostidagi terrorizm amaliyotining oqibatlari. Xalqaro terrorizmning mohiyati. Al-Qoida, ixvanul ta'siri. Insonning diniy jamoaga qo'shilishining psixologik muslimin, ISHID, boko xaram tashkilotlarining dunyo hamjamiyati xavfsizligiga tahdidi, ularga islom tashkilotlari va musulmon ulamolari tomonidan berilgan raddiyalar. O'zbekistonda sodir etilgan terroristik harakatlar va ularning barqaror taraqqiyotga ta'siri: Turkiston islom harakati, akromiylar, soxta salafiylik, vahobiylik, xizbut tahrir va nurchilik harakatlari tarixi, maqsadlari, ularga islom

14-mavzu. Dunyo hamjamiyatining ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash tajribasi

Xalqaro tashkilotlarning terrorizmga qarshi kurashi. Global terrorizmga qarshi global hamkorlikning yo'nalishlari: BMTning global antiterror strategiyasining asosiy yo'nalishlari: terrorizmning tarqalishi uchun qulay sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar, terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashish,

davlatlarning terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashish salohiyatini kuchaytirish, inson huquqlari va qonun ustuvorligiga umumiy hurmatni ta'minlash. Shanxay hamkorlik tashkiloti va mintaqaviy antiterror tuzulmasi faoliyatining ahamiyati. O'zbekistonning terrorizmga qarshi kurash tajribasi. O'zbekistonda diniy terrorizmga qarshi «Jaholatga qarshi ma'rifat» g'oyasining ahamiyati. geosiyosiy jarayonlarda diniy omilning aks etishi. tashkilotlari va musulmon ulamolari tomonidan berilgan raddiyalar. O'zbekiston davlat siyosatida radikal oqimlarga qarshi kurashning yo'nalishlari.

15-mavzu. Duyoviy bilimlar va diniy e'tiqod birligiga erishishning ahamiyati

Yangi O'zbekistonda dunyoviy va diniy ta'lim-tarbiyaga munosabat, diniy ta'limning yo'nalishlari. Yangi O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida diniy ta'limni tashkil etishning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati. O'z o'zini boshqarish organlarida (mahalla) diniy ta'lim va tarbiyani tashkil etishning ahamiyati. Diniy ta'limning g'oyalari va usullari. Ibodat va diniy marosimlarning shaxs komolotiga ta'siri. Duoning inson ongiga ta'siri va duoalar orqali siyosiy tilning shaxs dunyoqarashiga jihatlar. Dinga estetik yondashish, diniy axloq, axloqiy qadryatlar va meyorlar dialektikasi. Iymon va e'tiqodning shakllanishiga ijtimoiy muhitning ta'siri. Diniy poklanish - katarsisning ijtimoiy psixologik mohiyati. Texnogen sivilizatsiya davrida diniy e'tiqodni tarbiyalash va diniy matnlarni o'qishda hushyorlikni oshirishning zarurati. Diniy plyuralizm, diniy tolerantlik, bag'rikenglikning shaxs kamoloti va e'tiqod erkinligini taminlashdagi roli. O'zbekiston yoshlarining diniy manbalardagi axloqiy tarbiyaga oid g'oyalarni o'rganishning ahamiyati. Dunyoviy hayot va diniy qadryatlarning mutanosibliigi.

III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar **Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. Dinshunoslik fanining predmeti va funksiyalari.
2. Dinshunoslik metodologiyasi va dinlarning tasnifi
3. Din psixologiyasi ijtimoiy ahamiyati
4. Milliy dinlarning ijtimoiy taraqqiyot va shaxs e'tiqodini ta'minlashdagi roli
5. Buddaviylik va xristianlik dinning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri
6. Islom tafakkuri va madaniyatining shakllanish bosqichlari.
7. Qur'on, hadis, fiqh, aqida ilmlarining shakllanish tarixi
8. Islom huquqi va manbalari
9. Tasavvuf va hozirgi zamon
10. Islom inson ma'naviy madaniyatini tarbiyalash omillari haqida
11. O'zbekistonda diniy tashkilotlar va konfessiyalar faoliyati dinamikasi
12. Missionerlik va prozelitizmning diniy etiqodni tanlashga salbiy ta'siri.
13. Diniy fundamentalizm, radikalizm va terrorizm xavfsizlikka tahdid
14. Xalqaro tashkilotlarning terrorizmga qarshi kurashining ahamiyati
15. Diniy plyuralizm, diniy tolerantlik, bag'rikenglikning jamiyat hayotidagi o'rni.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi: - esse – dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish; - dokladlar tayyorlash; - kurs ishi yozish; - konspekt yozish; - glossariy tuzish; - individual va guruhli o'quv loyihasi; - keys-topshiriqlarini bajarish; - mavzuli portfoliolar tuzish; - axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash; - manbaalar bilan ishlash; - infografika tuzish; - chizma-tasviriy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish; - multimediali taqdimotlar yaratish; - darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash; - darsdan tashqari mashg'ulotlar ishlanmalarini tayyorlash; ta'lim yo'nalishi(mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limning mavzulari:

1. "Dunyo dinlar tarixi" fanining predmeti, ob'ekti, maqsad va vazifalari
2. Tabiat, inson, jamiyat tushunchalari. Ijtimoiy munosabatlar va ta'limotlar.
3. Dinning funksiyalari va jamiyatdagi roli
4. Dinlar kelib chiqishining ijtimoiy-tarixiy asoslari
5. Din falsafasi, uning asosiy yo'nalishlari
6. Qadimgi milliy dinlar va uning jamiyat ijtimoiy hayotidagi roli.
7. Zardushtiylik: ta'limoti va jamiyat hayotidagi o'rni
8. Buddaviylik dini. Qadimgi hind jamiyatida buddaviylikning tutgan roli.
9. Evropa xalqlari hayotida xristianlik mafkurasining vujudga kelishi.
10. Xristianlik oqimi va yo'nalishlari
1. 11. Islom dinining paydo bo'lishi
2. 12. Islomdagi yo'nalishlar va oqimlar. Islom g'oyalarining ijtimoiy funksional mohiyati
3. 13. Tasavvuf tarixi va ta'limoti. Tasavvuf namoyondalarining diniy, ijtimoiy va falsafaviy qarashlari.
4. 14. Bugungi kunda diniy va dinlararo munosabatlar.
5. Vijdon erkinligi, diniy tashkilotlar, konfessiyalar va millatlararo munosabatlar.
6. Diniy ekstremizm va terrorizm.
7. Xristianlikning pravoslav va katolik oqimlari, ularning umumiy va farqli tomonlari.
8. Protestantlikning shakllanishi va uning bo'linib ketishi.
9. O'rta Osiyoda xristianlikning tarqalishi.
10. Xristianlik va hozirgi zamon.
11. O'rta Osiyoni islomlashtirilishi, islomning ma'naviy-axloqiy mazmuni.
12. Islomshunoslik yo'nalishining shakllanishi va rivojlanishi.
13. "Qur'on"ning kitob holida jamlanish tarixi, uning sura va oyatlarining vahiy qilinishi va uning mazmuni.
14. Xalifa Usmon "Qur'on"ni (651 y.) va nusxalarini ko'paytirishi.
15. Hadislarni yig'ish va jamlash (VIII-IX asrlar).

	16.O'rta Osiyolik muhaddislar: Imom Buxoriy, at-Termiziy, ad-Dorimiy, as-Samarqandiy. 17.Islomning arkoni ad-din ruknlari. 18.Sunniylik, shialik va xorijiylar, ularning yo'nalishi va mazhablari. 19.Sunniylikdagi ikkita aqidaviy ta'limot: ash'ariya va moturudiy. 20.Hozirgi davrdagi islomga yot mazhablarning harakatlari. 21.Kalom falsafasining shakllanishi. 22.Taqdirning ilohiyligi va uning abadiyligi tarafdorlari - Jabboriylar: inson erkinligining qo'llovchi-Qadariylar. 23.Kalom falsafasi va mu'taziliylar maktabi. 24.Hozirgi islom xukmron bo'lgan davlatlarda islom ta'limoti. 25.Dinning madaniyat fenomeni sifatida o'ziga xos xususiyatlari. 26.Islom dinida globallashuvning talqini. 27.So'fizmda global muammolarning ko'tarilishi. 28.Dinlarning rivojiga globallashuvning ta'siri. 29.Din globallashuvining mezonlari. 30.Din globallashuvida xalqning iroda va erkinligi masalasi.
3	V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Talaba bilish kerak: • Ijtimoiy hayotda dinning tutgan roli, din tushunchasi, mohiyati, jamiyat hayotida namoyon bo'lish xususiyatlari, O'zbekistonda din va davlat tashkilotlari o'rtasidagi munosabatlarning tamoyillari, diniy jarayonlar globallashuvining ma'naviyatga ta'siri to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim) • Dinning asl insonparvarlik mohiyatini asrash, uning ma'naviy ma'rifiy salohiyatini jamiyatdagi barqarorlik, ijtimoiy hamkorlik, konfessiyalararo hamjihatlikni mustahkamlashga yo'naltirish borasidagi ishlarda tadrijiylikni ta'minlash, davlatimizning vijdon erkinligi sohasida olib borayotgan siyosatini, hamda uning amaliy natijasi bo'lmish qaror topgan diniy bag'rikenglik muhitini yoshlar orasida keng yoritishga qaratilgan tadbirlarning samaradorligini oshirish vazifalarini bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma). • Millatlararo totuvlikni ta'minlash, diniy bag'rikenglikni targ'ib qilishga qaratilgan tadbirlarni uyushtirish, turli mazmundagi vayronkor g'oyalardan ko'zlangan maqsadlarni anglab etish, milliy taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan davlatimizning vijdon erkinligi sohasida olib borayotgan siyosatini, hamda uning amaliy natijasi bo'lmish qaror topgan diniy bag'rikenglik muhitini yoshlar orasida keng yoritishga qaratilgan tadbirlarning samaradorligini oshirish vazifalarini amalda qo'llay bilish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. (malaka)
4	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: interfaol keys-stadilar; (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); guruhlarda ishlash; amaliy mashg'ulotlar taqdimotlarni qilish;

	individual loyihalar; jamoat ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. ijodiy ishlar yaratish
5	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni, bilimlarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yurita olish va joriy, oraliq nazorati shakllarida berilgan topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha topshiriqlarni bajarish.
6	VIII. Asosiy adabiyotlar: 1. Mo'minov A., Yo'ldoshho'jaev. «Dinshunoslik» o'quv qo'llanma. T.: 2021. 2. Aminova M. Ma'naviyatshunoslik. Elektron darslik. 2024 y. 3. Baratboyev B. O'zbekistonning milliy taraqqiyot strategiyasi. Toshkent. Ilm va fan. 2023. 4. Baratbayev B. Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. (O'quv qo'llanma) "Farg'ona" nashriyoti, 2020 yil. 5. Oripov E.Sh. Milliy g'oya tarixi va nazariyasi. Elektron darslik. 2021 yil. 6. Nazarov Q., Kadirov M., Yuldasheva M. Falsafa. O'quv qo'llanma. Toshkent. Jamoat xavfsizligi universiteti, 2021. 7. Ортиков.О. Философия. Учебное пособие. Андижан. 2024. 8. Xodjayev O. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2024 Qo'shimcha adabiyotlar: 1. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. 2. 2017. 3. Mirziyoev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga 4. berilgan Eng oliy bahodir. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU,2018 5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: Abdulla Qodiriy 6. nomidagi xalq me'rosi nashriyoti, 1993. 7. 11. Abdurahmonov A., Boydadaev M., Bozorov E. Din va siyosat. Namangan, 8. «Namangan», 2001. 9. Aminova M. va boshqalar. Globallashuv asoslari. O'quv qo'llanma. T. Yangi asr avlodi. 2021 y. 10. Aminova M. Ma'naviyatshunoslik. Elektron darslik. 2024 y. 11. Baratboyev B. O'zbekistonning milliy taraqqiyot strategiyasi. Toshkent. Ilm va fan. 2023. 12. Baratbayev B. Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. (O'quv qo'llanma) "Farg'ona" nashriyoti, 2020 yil. 13. Oripov E.Sh. Milliy g'oya tarixi va nazariyasi. Elektron darslik. 2021 yil. 14. Nazarov Q., Kadirov M., Yuldasheva M. Falsafa. O'quv qo'llanma. Toshkent. Jamoat xavfsizligi universiteti, 2021. 15. Ортиков.О. Философия. Учебное пособие. Андижан. 2024. 16. Xodjayev O. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2024

	17.Hasanov Sh. Ma'naviyat va huquq asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2018. 18.Xamraqulov Z.Y. Jinoyat huquqi. O'quv qo'llanma. - Farg'ona, "Farg'ona" nashriyoti, 2021. Axborot manbalari: 1. http://www.lex.uz 2. http://www.senat.uz 3. http://www.gov.uz 4. http://www.mtdp.uz 7. http://www.parliament.uz 8. http://www.ziynet.uz. 9. https://www.manchester.ac.uk/study/undergraduate/courses/2025/13042/ba-philosophy-and-religion/course-details/HIST10172#course-unit-details
7	Fan dasturi Qo'qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universiteti Kengashining 2025-yil 30-iyundagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
8	Fan/modul uchun mas'ul. B.J.Shamsiddinov. –QDU, “Milliy g'oya,va huquq” kafedrasi dotsenti falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
9	Taqrizchilar: Yuldasheva M..- QDU, “Milliy g'oya va huquq” kafedrasi dotsenti falsafa fanlari nomzodi.